

ZULAYHO MAHKAMOVA OLTIARIQ TUMANIDA MAHALLALARDAGI XOTIN-QIZLAR FAOLLARI BILAN UCHRASHDI

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi rahbari Zulayho Mahkamova Oltiariq tumanida mahallalardagi xotin-qizlar faollari bilan uchrashdi.



Unda viloyatimiz tuman-shaharlaridagi oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i vazifasini bajaruvchi mas'ullar ham ishtirok etdilar.

Unda xotin-qizlar faollari tomonidan mahallalarda ijtimoiy ko'makka muxtoj ayollarni aniqlash, ularni kasbga, tadbirkorlikka yo'naltirish, ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni va faolligini oshirish, muammolarini o'z vaqtida aniqlashga e'tibor qaratildi.



Ochiq muloqotda ham xotin-qizlarning ta'lif va kasbiy ko'nikmalar olishi, munosib ish topishiga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatini to'g'ri yo'naltirish borasida muhim vazifalar ilgari surildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-07 19:13:03